



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYATI HOKIMINING QARORI**

2025-yil 1-may

106-5-0-Q/25

Navoiy viloyati hokimligi

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-68-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasida belgilangan vazifalarni ro‘yobga chiqarish, diniy-ma’rifiy sohadagi ezgu g‘oya va tashabbuslarni xalq manfaatlaridan kelib chiqib, izchil davom ettirish maqsadida

### **QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-68-sonli Farmoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan quyidagilar: fuqarolarning vijdon erkinligi huquqini ta’minlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi faoliyatni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilganligi;

diniy-ma’rifiy soha faoliyati rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Din ishlari bo‘yicha qo‘mita viloyat boshqarmasi (E.Mardonov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (G‘.Aliyev), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (A.Tasbayev), viloyat yoshlar ishlari boshqarmasi (U.Bahromov) hamda viloyat oila va xotin-qizlar boshqarmasi (M.Mamadiyarova) jamiyatda vijdon erkinligini kafolatlash, diniy bag‘rikenglik, fuqarolararo totuvlik hamda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash maqsadida “Bag‘rikeng jamiyat – barqaror davlat” tamoyili asosida hamkorlikni yo‘lga qo‘ysin.

Bunda quyidagilar nazarda tutilsin:

diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplarini qat'iy amalga oshirishda davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish;

fuqarolarning vijdon erkinligiga bo'lgan huquqini ta'minlash, jamiyatda turli diniy konfessiyalar vakillarining o'zaro ahil-inoq va hamjihat hayot kechirishini qo'llab-quvvatlash;

O'zbekiston aholisining dini, e'tiqodi, milliy mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar huquq va qonuniy manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqara olishini ta'minlash;

dinga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib ustunlik berish, kamsitish va vijdon erkinligi kafolatlari buzilishining boshqa har qanday ko'rinishlarining oldini olish.

4. Din ishlari bo'yicha qo'mita viloyat boshqarmasi (E.Mardonov), viloyat adliya boshqarmasi (U.Abdullayev), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (G'.Aliyev) jamiyatda diniy bag'rikenglik va qonuniylikni qaror toptirish borasida fuqarolarning faol fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini amalga oshirsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish va ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish viloyat hokimining o'rinbosari E.Mardonov zimmasiga yuklansin.

**Viloyat hokimi**



**N.Tursunov**